



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-YIL YANVAR-IYUN

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024-yilning 1-iyul holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 933 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 477 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 24,7 % i Termiz shahrida joylashgan.

2024-yil 1-iyul holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



| | |
|----------------|-----|
| Termiz sh. | 477 |
| Jarqo'rg'on t. | 167 |
| Termiz t. | 166 |
| Denov t. | 143 |
| Sariosiyo t. | 141 |
| Qumqo'rg'on t. | 120 |
| Boysun t. | 117 |
| Sho'rchi t. | 101 |
| Qiziriq t. | 91 |
| Angor t. | 85 |
| Sherobod t. | 80 |
| Muzrabot t. | 72 |
| Oltinsoy t. | 62 |
| Uzun t. | 61 |
| Bandixon t. | 50 |

1 069

439

425

Bino va inshootlar qurilishi


Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanida 167 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,6 %), Termiz tumanida – 166 ta (8,6 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyun uchun)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 4 008,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etdi.



2020

2 272,4
mlrd. soʻm

104,9 %



2021

2 585,4
mlrd. soʻm

105,5 %

2022

3 174,9
mlrd. soʻm

105,9 %

2023

3 589,4
mlrd. soʻm

109,0 %

2024

4 008,1
mlrd. soʻm

108,3 %

Oldingi yilning mos davriga nisbatan



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so'm va foizda


| | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan, % da |
|----------------------|---------------------------------|----------------------------|---------------------------------|
| Surxondaryo viloyati | 4 008,1 | 108,3 | 100,0 |
| Termiz sh. | 1 454,3 | 112,3 | 36,3 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 84,3 | 104,7 | 2,1 |
| Angor | 165,5 | 107,1 | 4,1 |
| Bandixon | 64,8 | 105,7 | 1,6 |
| Boysun | 278,2 | 106,9 | 6,9 |
| Muzrabot | 139,0 | 120,4 | 3,5 |
| Denov | 383,2 | 105,1 | 9,5 |
| Jarqo'rg'on | 216,3 | 106,7 | 5,4 |
| Qumqo'rg'on | 138,9 | 103,1 | 3,5 |
| Qiziriq | 95,1 | 103,4 | 2,4 |
| Sariosiyo | 380,7 | 102,9 | 9,5 |
| Termiz | 270,9 | 100,2 | 6,8 |
| Uzun | 83,5 | 113,5 | 2,1 |
| Sherobod | 159,8 | 115,8 | 4,0 |
| Sho'rchi | 93,6 | 105,7 | 2,3 |

2024-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (1 454,3 mlrd. so'm), Denov tumani (383,2 mlrd. so'm) va Sariosiyo tumanida (380,7 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 72,3 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,6 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 131,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,1 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,7 % i yoki 2 792,3 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

129,9 mlrd. soʻm Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 129,9 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

1 770,8 mlrd. soʻm Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 770,8 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 63,4 % ni tashkil etdi.

891,6 mlrd. soʻm Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 891,68 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.


Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2024-yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 2 896,4 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,5 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga ko'payib, 65,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 34,0 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *866,4 mlrd. so'm*




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 36,7 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 10,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 63,3 % (10,6 % punktga kamayish).

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 245,3 mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga Qolgan 100,0 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga ko'paydi.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
103,0 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
109,7 %




Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
106,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 332,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,5 % ga kamayib, 8,3 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mln. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Muzrabot tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,0 % i), Sariosiyo tumani (43,3 %) va Muzrabot tumanida (15,0 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,1 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil etgan holda 2 689,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so'm



1 372,3
mlrd. so'm

Termiz shahri



215,4
mlrd. so'm

Denov tumani




189,9
mlrd. so'm

Boysun tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (1 372,3 mlrd. so'm), Denov tumanida (215,4 mlrd. so'm) va Boysun tumanida (189,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,6 % ni yoki 986,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi. Shundan 806,0 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 85,5 mlrd. soʻmni va 105,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 94,9 mlrd. soʻmni va 105,1 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Surxondaryo viloyati



154,1 mlrd. soʻm
Denov tumani



109,9 mlrd. soʻm
Sariosiyo tumani




79,7 mlrd. soʻm
Boysun tumani


Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (154,1 mlrd. soʻm), Sariosiyo tumanida (109,9 mlrd. soʻm) va Boysun tumanida (79,7 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-iyun oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 141,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 866,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,5 % va 96,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 94,8 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,3 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 96,9 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 76 225-65-59 (7520)